






## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 22 625,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022 yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 103,6 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,8 foizga yetdi.





**2022-2023- yillarning yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022 yil	2023 yil	
	<b>I. YAHM</b>	<b>19 261,2</b>	<b>22 625,6</b>	<b>103,6</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 294,6	21 548,7	103,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	966,6	1 076,9	104,5
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>18 294,6</b>	<b>21 548,7</b>	<b>103,5</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>6 885,8</b>	<b>8 085,8</b>	<b>104,1</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 266,8</b>	<b>6 323,9</b>	<b>105,2</b>
	sanoat	3 466,3	4 286,7	105,3
	qurilish	1 800,5	2 037,2	105,1

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022 yil	2023 yil	
	<b>Xizmatlar</b>	<b>6 142,0</b>	<b>7 139,0</b>	<b>101,4</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 674,8	1 751,6	92,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 072,9	1 301,8	109,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 394,3	4 085,6	103,4










Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 216,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 foizga yuqoridir.

	<b>2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)</b>
---	---



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,2 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,8 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,5 foizni, sanoat tarmog'ining ulushi 19,9 foizni, qurilish sohasida 9,5 foizni va xizmatlar sohasi 33,1 foizni tashkil qildi.

 <b>2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)</b>			
		2022 yil	2023 yil
	<b>I. YAHM</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,0	95,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,0	4,8
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	37,6	37,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	28,7	29,4
	sanoat	18,9	19,9
	qurilish	9,8	9,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>33,7</b>	<b>33,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,2	8,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	6,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	18,6	19,0




2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)


2022- yil




2023- yil




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (37,5 foiz), sanoatda 105,3 foiz (19,9 foiz), qurilishda 105,1 foiz (9,5 foiz), xizmatlar sohasida 101,4 foizni 33,1 foiz) tashkil etdi.




**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2023 yilga YAHM deflyatori indeksi 2022 yildagi narxlarga nisbatan 113,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 117,4 foiz va xizmatlar sohasida 114,6 foiz qayd etildi.



**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)**



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 15 357,9 mlrd.so'm (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 13 210,3 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 71,3% (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 72,2 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

### **Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo'shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.